

## QILQUYRUQ LEKSEMASI ETIMOLOGIYASIGA BIR NAZAR

**Kenjayeva Dildora Eshmamatovna,**

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi*

[dildorakenjayeva44@gmail.com](mailto:dildorakenjayeva44@gmail.com)

<https://orsid.org/0009-0005-7777-4607>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18606451>

**Annotatsiya.** Ornitonimlar guruhiga kiruvchi zoonimlar nomlanishida o'ziga xos tarixiy shaklga ega. Zoonimlar nomlanishi, asosan, ularning ovozigga taqlid asosida kelib chiqqan. "Boburnoma" da insonlar bilan bevosita hayot kechiradigan ornitonimlar mavjud. Ularning aksariyati turkiy qatlamga mansub. Qardirg'och, chumchuq, qarg'a, chug'urchuq, bedana, olaqarg'a, zog'cha, yapaloq kabi qushlar qatorida Qarshi qushchasi, Murg'aki Qarshi, Qilquyruq deb nomlangan qush ham mavjud. Birgina hudud orqali keltirilgan bu ornitonim boshqa o'rinlarda uchramaydi. Qilquyruq leksemasi va uning tarkibidagi quyruq so'zi etimologik tahlilni talab qiladi. Mazkur zoonimning nomlanishi va ornitonimlar nomida ko'p uchraydigan quyruq leksemasining qo'llanish doirasi bilan tanishasiz.

**Kalit so'zlar:** ornitonim, zoonim, Qarshi qushchasi, quyruq, etimologiya, o'z qatlam.

**Аннотация:** Зоонимы, принадлежащие к группе орнитонимов, имеют уникальную историческую форму в своем наименовании. Зоонимы называются в основном по имитации их звучания. В «Бобурноме» есть орнитонимы, которые живут непосредственно с человеком. Большинство из них относятся к тюркской группе. Среди таких птиц, как сорокопуд, воробей, ворона, сойка, перепел, сойка и малиновка, есть также птица, называемая карши, мургаки-карши и килькуйрук. Этот орнитоним, завезенный только из одного региона, не встречается в других местах. Лексема килькуйрука и слово «хвост» в его составе требуют этимологического анализа. Вы познакомитесь с наименованием этого зоонима и областью применения лексемы хвоста, которая часто встречается в названиях орнитонимов.

**Ключевые слова:** орнитоним, зооним, птица Карши, хвост, этимология, собственный класс.

**Annotation:** Zoonyms belonging to the ornithonym group have a unique historical form in their naming. Zoonyms are named mainly based on imitation of their sound. In the "Boburnoma" there are ornithonyms that live directly with humans. Most of them belong to the Turkic layer. Among birds such as the shrike, sparrow, crow, jay, quail, jay, and robin, there is also a bird called the Karshi bird, the Murgaki Karshi, and the Qilquyruq. This ornithonym, which is introduced through only one region, does not occur in other places. The lexeme of the Qilquyruq and the word "tail" in its composition require etymological analysis. You will get acquainted with the naming of this zoonym and the scope of application of the lexeme of the tail, which is often found in the names of ornithonyms.

**Keywords:** ornithonym, zoonym, Karshi bird, tail, etymology, own class.

**Kirish va dolzarbligi.** Tabiat va inson doimo bir-birini to'ldirib yashaydi, ular tabiatning qismlaridir. Turkiy tillarida zoologik terminologiya chuqur tarixiy ildizga ega bo'lib, qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek adabiy til obidalariga borib taqaladi. O'zbek tilshunosligida hayvon nomlari "zoonim" tushunchasi bilan ifodalanib, onomastika tarkibida o'rganiladi. "Zoonim" keng ma'noda nabotot olamiga nisbatan qarama-qarshi, jonli-jonsiz zidlanishda butun hayvonot olamini o'zida aks ettirsa, qushlar "ornitonim"lar nomi ostida o'rganiladi. Turkiy xalqlar hayotida qadimgi davrlaridayoq hayvon nomlari, zoonimlar va ornitonimlar leksik qatlamning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan. Jahon adabiyoti folklorida ornitonimlar qanotga ega bo'lgani sababli osmon ilohlari bilan ham

bog‘langan. Ornitonimlarni olov va suv, ruh tushunchalari bilan bog‘lab talqin etilishi an‘anaga aylangan. Misol uchun, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham qushlar, masalan, Xvarna far olov bilan bog‘lab talqin etilgan. Qadimgi miflarda qush quyosh olovini olib kelib, insonlarga yaxshilik qilgan jonzot sifatida ulug‘lanadi. Ornitonimlar insonlar hayoti bilan chambarchas bog‘liqligi, turli sohalarda o‘rganilishiga sabab bo‘lgan.

**Metodlar va o‘rganilish darajasi.** „Ornitonim“ terminini fanga 16-asr oxirida italyan naturalisti U. Aldrovandi kiritgan. Qushlarga bag‘ishlangan birinchi asar Aristotelning “Hayvonlar tarixi“ (miloddan avvalgi 384—322 yillar) bo‘lib, u 170 tur qushning tuzilishi va hayotini tasvirlab bergan.

Turkiy xalqlarda zoonimlarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish tarixi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘atit turk” asariga borib taqaladi. Unda 200 ga yaqin zoonim, jumladan, 100 ga yaqin qush nomlari uchraydi [11:5].

Olima D.X.Bozorovanning “O‘zbek tili zoologik terminologiyasining shakllanish va rivojlanish tarixi” nomli tadqiqotida o‘zbek tilida mavjud qush nomlariga to‘xtalib o‘tilgan. Tadqiqotda o‘zbek tiliga xos ornitonimlar tavsiflangan [11:14]. “Boburnoma”da katta tarixiy yo‘l bosib o‘tilgan. Bu davrda ularning asosiy oziq-ovqati turli hayvonlar va qushlar ovlanishi bilan kechgan. Bobur ov jarayonlari va ularning tashkillashtirilishi ham alohida yoritib borgan [7]. Movaraunnahr, Kobul, Hindiston tasvirida ham ornitonimlar salmoqli qismni tashkil etadi.

**Tadqiqot natijalari.** “Boburnoma”ning lingvistik, etimologik jihatdan o‘rganilishi tilimizning boy leksikasi va tarixiy tadrijini ochib beradi. “Boburnoma”da muallif so‘z etimologiyasiga oid qarashlarini ham aks ettirgan. Asar matnida Darmiyon, Olachaxon, Kark, Asad antroponimlari, Qarshi, Kashmir, Lamg‘anot, Hotiypul, Balda‘i mahfuza, Ko‘hi Safid, Hodarvesh, Seyoron, Ko‘hi Jud, Savolik parbat (Himolay tog‘i), Shohi Kobul toponimlari, Laqlaqa, Muqatta‘, Chinnixona kabi masjid nomlari, Kakka, Nilagov, Murg‘aki Qarshi singari zoonimlar etimologiyasi keltirilgan.

“Boburnoma”da uchraydigan ornitonimlar turkiy, fors, arab, hind tilida uchraydi. Asardagi zoonimlarning bir qanchasi ornitonimlar, ya‘ni (yun. ornithos – qush va ... logiya) – umurtqalilar zoologiyasining qushlarni o‘rganadigan bo‘limiga mansub hisoblanadi. “Boburnoma”da aynan ta‘rifi keltirilgan qushlardan biri *qilquyruq* ornitonimidir. Uning etimologiyasi va tarkibidagi *quyruq* leksemasining zoonimlar bilan bog‘liqligi, tilshunoslikda qo‘llanish tartibi keltiriladi.

“Boburnoma”da 3 ta nom bilan berilgan **qilquyruq** ornitonimi XI asr manbalarida *qil quš*, *qil*, *qil quyruği* tarzida kelgani va bu termin *qil*- “qil”, “tuk”, *quzruq/quyruq* “dum, quyruq” so‘zlaridan hosil bo‘lgani taxmin qilinadi. XIV asrga oid arabcha risolalarda, jumladan, Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub, “o‘troq qush” ma‘nosini ifodalovchi *čil* termini uchraydi. Bu zoonim nomi boshqa manbalarda ko‘zga tashlanmaydi. Zoonimning *čil* (“yengil ko‘rinishdagi sayrash,

chirqillash”) tovushga taqlid asosida paydo bo‘lganligi haqida ma’lumot bor [1:63]. Asarda aynan shunday keltiriladi: “*Bag‘riqaro yo‘sunluq qushqina bo‘lurkim, qilquyruq derlar; Qarshi viloyatida behad va benihoyat bo‘lur uchun ul navohida murg‘aki qarshi derlar*” [4:108]. “*Bag‘riqarosimon, qilquyruq, murg‘aki Qarshi* bir qushning turlicha nomlanishidir. Qilquyruqning boshqa manbada *Qarshi tovug‘i* [14:23] sifatida berilishini xato deb hisonlaymiz, sababi qush ucha oladi, tovuqning esa uchmasligi hammaga ma’lum. Qushning faqatgina shu hududda uchrashi uning yashash joyi nomi bilan qo‘llanishiga asos bo‘lgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida –*bag‘ritosh, bag‘riqurt* tarzidagi ifoda bo‘lib, *bag‘riqora* (qorabovur [9:10]) *zool.* Siynasida qora belgisi bo‘lgan qush deb ta’riflanadi [12:192]. Shuningdek, qilquyruq atamasi yo‘qolib ketish arafasida bo‘lgan “Qizil kitob”ga kiritilgan faqat Amudaryoda yasovchi Amudaryo katta soxta kurakburunining ikkinchi nomi sifatida ham yuritiladi [15].

Qilquyruq so‘zidagi **quyruq** leksemasi eski o‘zbek adabiy tilida barcha hayvonlar, qushlar tanasining uch, oxirgi qismi tomoniga nisbatan qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin, masaln, *tovuqlarning quyruq‘i, qushlarning quyruq‘idek.* “Boburnoma”da ham xuddi shunday tarzda kelgan. Quyruq so‘zi qadimgi turkiy tilda *quzruq, qudruc, quduruc* tarzida talaffuz qilinib *quyruq* shaklida bizgacha yetib kelgan [10:573.I]. Quyruq *ayn. dum, ayn. dumba.* Samolyot, kema va sh.k.ning orqa qismi: *samolyotning quyruq‘i, kemaning quyruq‘i* [12:367] shaklida ma’no ko‘chishi orqali ham qo‘llanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyruq ma’nosida torayish kuzatilib, *qo‘yning quyruq‘i* birikmasi faol. Ko‘p o‘rinlarda forscha *dum* atamasi qo‘llanadi. Dum hayvon tanasining chiqaruv teshigi tepasidan boshlanadigan va ingichkalanib boruvchi eng pastki, oxirgi qismi, quyruq deb ta’riflanadi. Ba’zi jonivorlar tanasining ket tomonidagi uzun patlar yoki ingichkalashgan qismi [12:659]. Quyruq va dumba so‘zlari sinonim sifatida qo‘llanadi: *qo‘yning quyruq‘i=qo‘y dumbasi* [12:660]. Quyruq leksemasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud. *It itga buyurar; It quyruq‘iga* [8] maqolida asl ma’nosida qolgan. O‘g‘uz lahjasida *It quyruq‘ini bulag‘an yerdin kolmidi* iborasida ham ayni ma’noda qo‘llanadi [13]. Shuningdek, o‘g‘uz lahjasida quyruq asl ma’nosida *itni kuyruki, pishk (mushuk)ni kuyruki* tarzida ishlatiladi. Asosan, yog‘ ma’nosida tushuniluvchi bu leksema ba’zi hududlarda yog‘ ma’nosida umuman qo‘llanmaydi [2]. Quyruq leksemasi bir nechta o‘simliklar tarkibida ajralmas birikma sifatida uchraydi: sigirquyruq, arslonquyruq [3:10-59]. Hindiston qushlari ta’rifida ham *bag‘riqora* (qorabovur [14:23]) nomli qush bo‘lib, quyidagicha ta’riflanadi: “*Yana Hinduston bag‘riqorasidur, ul bag‘riqoradin kichikroq va inichkaraktur. Bag‘rining qorasi ham kamdur. Uni ham andin inichkaraktur*” [4:351]. Bobur bu qushlarni qiyoslaganda, ularning ba’zi jihatlari o‘xshashligini inobatga olgan va farqlarini ham batafsil keltirgan.

**Xulosa.** “Boburnoma”da zoonimlar qiziqarli etimologik tahlillar, qiziqarli voqealar, noyob turlar, ajoyib tasvirlar orqali ifodalangan. Ularning yashash tarzi, oziqlanishi, ovlanishi, rangi, nar va modasining farqlari, qayerda va qanday hayot kechirishi, mahalliy

zoonimlar bilan taqqoslangan holda har bir kichik harakati e'tibordan qochirilmay bayon etilgan. Asar tili sodda va ravonligi, eski o'zbek adabiy tilining lug'at fondini, o'zida jamlashi bilan qimmatlidir. Asarda yuqorida etimologik tahlil qilingan qilquyruq ornitonimi kabi ko'plab o'z qatlamga oid qushlar: chupchuq, akka, qoz, turna, chug'urchuq, bo'dana, zog'cha, qarlug'och, qirg'ovul, kaklik, tug'doq, o'rdak, so'na burchin, qarg'a, tovuq, burgut, uqor, qarqara, o'zlashgan qatlamga oid: to'ti, bulbul, durroj, tovus, kaptar, laklak, shahboz, ro'bai parron va hind ornitonimlarini bildiruvchi mo'r, shorak, lo'cha, kanjal, pulpakor, charz, soras, manik, mataa, ko'yal, ulug' shappara, chamagdar, kabki dariy, shahmurg', g'armpoy, dang, ulug' bo'zak, murg'i jangal, qorcha, matayla, shaqqa, chalsiy, shom, xarchal kabilar keltirilgan [7].

Bundan ko'rinadiki, "Boburnoma"da qushlarning ta'rifi va tavsifi, nomlanishi, ovlanishi haqida va lingvistik va etimologik qimmatli ma'lumotlar berilgan. Tilshunosligimizda etimologik tahlillar tilimizning aslligini o'rganishda muhim manba sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили.—Тошкент: Нодирабегим, 2020.
2. Andijon viloyati, Jalaquduq tumani.
3. Аюпов Р. Доривор ўсимликлар ва улардан фойдаланиш китоб-3.
4. Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. —Тошкент: ФА нашр, 1960.
5. Бобур Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига В.Раҳмонов ва К.Муллахўжаевалар таъдил қилган. —Тошкент, 2008.
6. Бобур энциклопедияси. —Тошкент: Шарқ, 2017.
7. Kenjayeva D. "Boburnoma"dagi zoonimlarning etimologik tadqiqi.-Toshkent, 2023. Magistrlik diss.
8. Мехнатсевардик ва ишёқмаслик ҳақида мақоллар. www.ziyouz.uz.
9. Qilichev B. "Onomastika" fanidan mustaqil ta'lim uchun materiallar, metodik ko'rsatma. —Buxoro, 2022.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд (туркий сўзлар). -Тошкент: Университет, 2000. 600 б.
11. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвакултурологик хусусиятлари. -Тошкент, 2017.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида. 5 жилдлик. —Тошкент. 2006-2008.
13. Хоразм viloyati, Хонқа tumani
14. Зокиров К.З., Умматов А. Бобурнинг хайвонот дунёси тўғрисидаги қарқашлари. Илмий хабарнома. —Андижон. 2012.
15. <https://www.gazeta.uz> 2021/06/08.